



## TARBIYANING UMUMIY METODLARI: TURLARI VA USULLARI

*Normurodova A.A.*

*Qarshi xalqaro universitetining assistent o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** tarbiya metodlari, maqsadi, mazmuni, turlari, usullari, so'z orqali ifodalash usuli, ko'rgazmalilik usuli, amaliy namuna usuli, rag'batlantirish va jazolash usullari.

**Ключевые слова:** методы воспитания, цель, содержание, виды, методы, способ словесного выражения, метод наглядности, метод практического примера, методы поощрения и наказания.

**Key words:** methods of upbringing, purpose, content, types, methods, method of expression by word, method of exhibitionism, method of practical example, methods of encouragement and punishment.

### **РЕЗЮМЕ:**

Ushbu maqolada tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratish jarayoni va metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjudligi, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qilishi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitishi haqida so'z yuritilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье рассказывается о процессе создания совершенно новых методов воспитания и о том, что проблема совершенствования методов существует всегда, каждый воспитатель решает ее по своему усмотрению, обогащая общую методику на основе выражения своих частных взглядов в соответствии с конкретными условиями воспитательного процесса.

### **SUMMARY:**

This article talks about the process of creating completely new methods of upbringing and the constant existence of the problem of improving methods, that each educator will solve it according to his capabilities, enrich the general methodology based on the expression of his own private views in accordance with the specific conditions of the upbringing process.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llari. Tarbiya metodlari tarbiya fani ishlarini to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib, bola shaxsining har tomonlama kamol topishi bilan belgilanadi va tarbiyaviy ishlar jarayoniga taalluqli bo'lgan ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari



oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari o'qituvchi va jamoa tomonidan tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u hamda odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llanadigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini anglatadi. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va axloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi larda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.

Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, "Kuchli harakatlantiruvchi" metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning "Ayaydigan" metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani "Kuchli harakatlantiruvchi" va "Ayaydigan" metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi, tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi, nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda turli xil usul va vositalarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta'sir qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun



tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar.
2. Odatlantirish va faoliyatga mashqlantirish metodlari.
3. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari.

Birinchi sinf metodlarining vazifasi o‘quvchilarning ijtimoiy ongida hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me‘yorlari haqida tushuncha hosil qilish hamda bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me‘yorlar o‘quvchi shaxsining e‘tiqodi, ishonchi, hayotiy qarashlari va tajribasiga aylanadi. Ushbu sinfga ma‘naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko‘rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi sinf metodlarining yordamida o‘quvchilarda ma‘naviy mazmunga oid odatlar hosil qilinadi. O‘quvchilar xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma‘naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi sinf metodlarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanishi orqali ong hamda xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki o‘qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o‘quvchilarning ongi, xulqiga ta‘sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko‘ra olishiga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi o‘quvchi tarbiya natijasida komil inson darajasiga, ya‘ni jamiyatning barkamol a‘zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o‘zida shakllantirib borishi lozim.

Uchinchi sinf metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvor va odatlarni rag‘batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg‘ulari hamda maqsadlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishda foydalaniladi. Ushbu sinf metodlariga rag‘batlantirish va jazo berish kabilar kiradi.

To‘rtinchi sinfga o‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari kiradi. Ijtimoiy ongni va ijtimoiy axloqni shakllantirish metodlari o‘quvchi larning ongi, his-tuyg‘usi, xulqi hamda odobiga har tomonlama ta‘sir ko‘rsatishni o‘z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy ongni va axloqni shakllantirish metodlari - tushuntirish, uqtirish, ishontirish, o‘git-nasihati, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat va hikoya shakllaridan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar tizimi va tarbiya jarayoni har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a‘zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlikka yuz tutadi va oqibatda inqirozi tayin bo‘ladi. Negaki, har qanday jamiyatning o‘sib, rivojlanishi



uchun moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni, ajdodlardan yaxshiroq darajaga ko'tara bilishi kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlar shakllantirishi uchun jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy institutlar tizimiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Uqtirish, o'git-nasihat, tushuntirish, suhbat, hikoya, iltimos qilish, istak bildirish, maslahat berish, nasihat, namuna, ibrat ko'rsatish, ishontirish, ishonch bildirish, undash, ko'ndirish, talab qilish, buyruq berish, mashq qildirish, ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, o'zini-o'zi idora qilish va tarbiyalash, duo qilish, olqishlash, uzr yoki kechirim so'rash, jazolash, koyish, po'pisa qilish, qizartirish, uyaltirish, tanbeh berish, rag'batlantirish, maqtash, dalda berish, kabi turlari keng qo'llaniladi. Biz ularning ma'naviy-axloqiy va estetik tavsifini ochib berishga harakat qilamiz. Modul shaxs xulq-atvoriga, odob axloqiga va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishdir. Masalan, ota-onalarni va kattalarni hurmat qilish, ularga xushmuomalada bo'lish, ko'chada va jamoat joylarida yurganda tartib-qoidalarga bo'ysunish hamda jamoat tartibini saqlash qanday bajarilishi ham aniq qilib tushuntirilishi lozim.

Ishontirish metodlari. O'quvchilarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri ishontirish metodidir. Ishontirish deb, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter hamda xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida ularning ongi, tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatishga aytiladi. Ishontirish metodi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda va ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi ishontirish metodini birgina o'quvchilargagina emas, balki butun jamoaga ham qo'llashi mumkin. Ishontirish metodi o'quvchilar jamoasida sog'lom jamoatchilik fikrini vujudga keltirishga yordam beradi, axloq normalariga, axloq qonun-qoidalariga va ayrim o'quvchilarning xatti-harakatlariga tengdoshlari tomonidan to'g'ri baho bera bilishni tarbiyalaydi. Jumladan, ishontirish metodi qo'llanilganda tushuntirish, uqtirish, o'git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat, ma'ruza va munozaralar kabi shakllardan foydalaniladi. O'git-nasihat haqidagi ma'lumotlar ifodalanadi.

Hikoya-suhbat. O'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning jonli so'zi asosida o'quvchilar shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy shakllantirishning ta'sirchan metodi hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu o'quvchilar uchun dolzarb, shaxsni ma'naviy ishonch, ijobiy his-tuyg'ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, o'qituvchi-pedagog boshqa sinf yoki sinf jamoasi barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiyotganligini va tartib-intizomi yaxshiligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligini o'quvchilarning qanday tinglayotganiga qarab, tekshirish mumkin. Agar o'quvchilar - biz ham o'qishda va intizomda namuna-

ibrat bo‘lamiz! - degan umumiy istak bildirsa, demak, o‘qituvchi-pedagogning hikoyasi o‘quvchilar ongiga yetib borgan va bunga javoban o‘qish hamda intizomda maqsad yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga tayyorgarlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Suhbat o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda keng qo‘llanib kelinmoqda. Suhbat vaqtida o‘quvchi-talabalar passiv tinglovchilar emas, balki, muhokama qilinayotgan mavzular bo‘yicha faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida o‘qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning shaxsiga xos xususiyatiga, tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O‘tkazilayotgan suhbat o‘quvchilar uchun ahamiyatli hisobga olinishi zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchilarni o‘ylashga, mazkur, masala bo‘yicha o‘z bilimlarini orttirishga yordam beradi. O‘qituvchi-pedagogning o‘zi qanchalik kam gapirsa, o‘quvchilar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan barobar ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi. Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy me‘yor keyinchalik o‘quvchilar xulq-atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga mo‘ljallangan o‘z xulq-atvorini kuzatishlar bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug‘iladi.

Rag‘batlantirish metodi - biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta‘sirini kuchaytirish hamda o‘quvchi-talabalarning shaxsini rivojlantirish va ijobiy xatti-harakatlarini faollashtirish hamda baholash maqsadida qo‘llaniladi.

Masalan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning g‘oyaviy ma‘nosi sifatida o‘quvchi-talabalar shaxsida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Shuning uchun ham tarbiyadagi rag‘batlantirish va jazolash metodi o‘quvchi-talabalardagi ijobiy xislatlarni rivojlantirishda, ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo‘lmog‘i lozim. Rag‘batlantirish va jazolash metodida o‘quvchi-talabalar shaxsi emas, balki ayni vaqtdagi xatti-harakatlari, qiliqlari, tarbiyalanuvchining individual xususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarda tutiladi.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchilarga quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag‘ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o‘z faoliyati va xulqiga mas‘uliyatini oshiradi. Rag‘batlantirish yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Rag‘batlantirish o‘quvchilarning ruhini ko‘taradi, ularni tetiklantiradi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi, xulqi va xatti-harakatida yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga otlantiradi va ularga ma‘naviy oziq beradi. O‘quvchilarning har bir yaxshi xulqini o‘z vaqtida rag‘batlantirish katta ahamiyatga egadir. O‘z xulqiga ijobiy baho berilganini va ma‘qullanganini ko‘rgan o‘quvchi quvonadi, yana ham yaxshi xatti-harakatlar sari intiladi. Rag‘batlantirishning shakllariga ma‘qullash, ko‘nglini ko‘tarish, ishonch bildirish, maqtash, mukofotlash, qayd qilish, og‘zaki va yozma tashakkur



bildirish kabilarni kiritish mumkin. Rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Har qanday rag‘batlantirish o‘quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Rag‘batlantirish vaqtida o‘quvchining jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u ketma-ket bo‘lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo‘shashtirib yuborishga, o‘quvchi-talabada manmanlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag‘batlantirishda o‘quvchi-talabning muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi. Oila, ta’lim muassasasi va o‘qituvchi-pedagoglar jamoasi o‘rtasida o‘quvchilar shaxsiga va ularning xulqiga baho berishda bir xil talab bo‘lishi nihoyatda zarurdir. Zero, tarbiyalanuvchining xulqiga baho berishda o‘quvchi-pedagog o‘rtasida kelishmovchilik chiqmasligi uchun o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachilar haqqoniy baho berishi kerak.

Jazolash metodlari - bu o‘quvchilarning xatti-harakatlari va faoliyatiga salbiy baho berish. Jazo berish axloq me‘yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma‘qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatish, jamoa oldida uyalishi, o‘zini gunohkor deb bilish hissini uyg‘otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo‘llab-quvvatlashi asosida jazolash metodlari ham xilma-xil bo‘lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o‘rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlashtirish va boshqalar kiradi.

Jazo - bu o‘quvchilarning o‘z xulqi va harakatidagi nojo‘yalik hamda kamchiliklarni anglashiga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho‘xliklardan o‘zlarini tiyishiga yordam beradi.

O‘quvchilarga nisbatan jazo choralari qo‘llashda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish kerak:

- a) jazoning haqqoniyligi;
- b) jazo aybdorni tarbiyalashi;
- d) aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi lozim.

Asosan, quyidagi jazo choralari qo‘llanishi mumkin:

- o‘qituvchining, sinf yoki sinf rahbarining, ta’lim muassasalarining o‘quv yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarining tanbehi;
- parta, sinf doskasi yoki o‘qituvchi stoli yonida tikka turg‘azib qo‘yish;
- sinf o‘quvchilari oldida ogohlantirish berish;
- bajarilmay qolgan sinf-auditoriya yoki uy vazifasini bajarish uchun darsdan keyin olib qolish;
- ta’sir ko‘rsatish uchun pedagoglar kengashiga chaqirish;

- ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ogohlantirish e'lon etish;
- xulqiga qo'yilgan bahoni pasaytirish.

Sanab o'tilgan jazo choralari qo'llanganda o'qituvchi har bir o'quvchining shaxsiy va yosh xususiyatlarini, sinf yoki sinfning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmog'i kerak.

Tarbiyasi qiyin yoshlar bilan ishlash. Tarbiyasi qiyin bo'lgan yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda qayta ishonirish metodi muhim rol o'ynaydi.

Qayta ishonirish metodini vazifasi faqat odob-axloqni o'rgatish, nasihat qilishdan iborat bo'lmay, balki har bir o'smirdagi shaxsiy nuqsonlar uning hayotini qanday buzayotganini, yalqovlik nimalarga olib kelishi mumkinligini tarbiyasi qiyin yoshlarga ochiq-oydin ko'rsatishdir. Qayta ishonirish metodida hikoya, odob-axloq haqida ma'ruza, bahs-munozara, davra suhbat va hokazolardan ham foydalanish mumkin. Bunday tarbiyaviy tadbirlar erkin fikr almashish, bahslashish shaklida, obro'-e'tiborli kishilar, professor-o'qituvchilar ishtirokida o'tkazilsa samaraliroq bo'ladi. Qayta tarbiyalashda rag'batlantirishning tashakkur bildirish, maqtov yorlig'i, qimmatli sovg'alar bilan mukofotlash, yaxshi so'z, samimiy tabassum, maqtab qo'yish, erishgan muvaffaqiyatlari uchun minnatdorlik bildirish va boshqa oddiy shakllari ham keng qo'llaniladi. Yaxshi so'zni kam eshitadigan, qulog'i yomon so'zdan bo'shamaydigan shaxslarga rag'batlantirish juda kuchli ta'sir qiladi yoki dimog'dor, egoist, maqtanchoqlarga esa bu usul deyarli ta'sir etmaydi.

Shuning uchun rag'batlantirish individuallashtirilgan bo'lishi, ya'ni har bir tarbiyalanuvchi ko'rsatgan xizmati va shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda alohida taqdirlanishi kerak. Rag'batlantirish tashabbusi va uni amalga oshirish o'quvchilar jamoasi yoki tarbiyalanuvchilar uchun obro'li bo'lgan o'qituvchi-pedagoglar, murabbiy tarbiyachilarning har qanday shaklda bildirgan maqtovini uni sotib olishga, uning ko'nglini ko'tarishga bo'lgan intilish deb qabul qiladi. Shu sababdan, o'smirlarni rag'batlantirishda jamoat tashkilotlarining vakillari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, obro'-e'tiborga ega o'qituvchi pedagoglar va murabbiy-tarbiyachilar qatnashib, ular taqdirlasalar, samaraliroq bo'ladi.

Zero, o'smirlar xizmatining kattalar tomonidan tan olinishi ular ko'nglida yaxshi iz qoldiradi. Rag'batlantirish tarbiyasi qiyin har bir o'smirda o'zining ijobiy fazilatlarini anglashga, haqiqatni tushunishiga yordam berishi va unda yaxshi odam bo'lish istagini uyg'otishi kerak. Agar taqdirlash bunday vazifani bajarmay shaxsda o'zini katta olish, manmanlik, o'ziga ortiqcha ishonish kabi salbiy sifatlarni rivojlantiradigan bo'lsa, undan tarbiya metodi sifatida foydalanish mumkin emas. Tarbiyasi qiyin shaxsni qayta tarbiyalashda birinchi marta mashhur pedagog A.S.Makarenko o'z tajribasida qo'llagan "Portlash" metodidan



ham foydalanish mumkin. Bu metoddan odatda, boshqa tarbiya metodlari natija bermaganda, eng oxirgi chora tariqasida foydalaniladi.

Portlash metodining mohiyati shundan iboratki, tarbiyasi qiyin shaxs kutilmaganda yuz bergan vaziyat natijasida vaziyat nihoyatda keskinlashib, shaxs oldida hal etilishi kechiktirib bo'lmaydigan, endi nima qilish kerak degan savol ko'ndalang bo'lib, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shunday vaziyatda shaxsdagi ijobiy asoslar nuqsonlarga qarshi isyon ko'targandek bo'ladi. Bunday oshkoralik vaziyatida shaxs o'z xulq-atvorini ko'radi, unda o'zidan norozilik, o'z turmush tarziga, nuqsonlariga nafrat, yaxshi bo'lishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Ana shunday tabiiy portlash shaxs ongini noto'g'ri tasavvurlardan tozalaydi, yomon xulqni yo'qotadi. Shu vaqtdan boshlab yaxshi odatlarni, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash yuzasidan tizimli tarbiyaviy ishlar amalga oshirilishi zarur. Portlashdan keyin shaxsning hayoti va faoliyati yangi asoslarda tashkil qilinsa, ijobiy fazilatlar mustahkamlanib boradi. Tarbiyasi qiyin bo'lgan yoshlar o'z xulq-atvori yaxshi tomonga o'zgarishini xohlamasa, o'z nuqsonlari bilan faol kurashmasa, ularni qayta tarbiyalashda samara va natija bo'lmaydi. Qayta tarbiyalashda tarbiyalanuvchilarni o'z xulq-atvorini kuzatish, o'ziga topshiriq berish, o'zini nazorat qilish metodlaridan foydalanishga o'rgatish kerak.

Demak, tarbiyasi qiyin shaxsni tarbiyalash uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, pedagogik metodlarning majmuini navbatma-navbat yoki bir yo'la qo'llashni talab etishi mumkin. Biroq har bir tarbiya metodi shaxsning tarbiya darajasi, individual xususiyatlariga muvofiq ravishda tanlanishi kerak. Xullas, tarbiyaning umumiy metodlari to'g'risidagi fikrlarni yakunlar ekanmiz, tarbiyaning bu metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarining barchasini qamrab olmasligini unutmaslik kerak.

#### Adabiyotlar:

1. N.B.Adizova, G.E.Saidova. Boshlang'ich ta'limda tarbiya – o'quv-metodik majmua. Buxoro-2022 (45-50-betlar)
2. S.N. Djurayeva, N.S. Turdiyeva, A.I. Baxronova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o'quv qo'llanma. Buxoro – 2021 (15-22-betlar), (25-38-betlar)
3. D.Babayeva. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o'quv qo'llanma. Toshkent-2021
4. N.Ismatova va boshqalar. "1-2-3-4-sinflar uchun tarbiya fanidan darslik". Toshkent-2020
5. R.M.Sarsenbayeva. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o'quv qo'llanma. Toshkent-2019 (179-201-betlar), (202-222-betlar), (295-317-betlar)